



## **ROSSIYA IMPERIYASINING BOSQINCHILIK HARAKATLARI VA 1916-YILDAGI JIZZAX QO'ZG'OLONI: TARIXIY HAQIQAT VA ZAMONAVIY SABOQLAR.**

**Rahmatova Malikaxon Uralovna**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute*

*email:malikaxonraxmatova6@gmail.com +998(88)913 20 24*

**Annotatsiya:** Maqolada Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati va uning Jizzax vohasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy inqirozga ta'siri yoritiladi. 1916-yilgi Jizzax qo'zg'oloni sabablari, xalq ishtiroki, ayollar va yoshlarning roli hamda qo'zg'oloning tarixiy saboqlari ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan

XIX asroxiriva XX asrboshlarida Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoda o'zining mustamlakachilik siyosatini kuchaytirgan davr bo'ldi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati Turkistonni harbiy bosib olish bilan cheklanmay, hududiy boshqaruv tizimini ham keskin o'zgartirdi. Bu siyosat mahalliy xalqning hayot tarziga, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga va madaniy qadriyatlariga jiddiy bosim sifatida namoyon bo'ldi. Mahalliy hokimiyatlar tugatilib, ularning o'rniga rus harbiy-mulkiy amaldorlari tayinlandi. Ayni vaqtda, mazkur bosqinchilik siyosatiga qarshi bo'lgan jiddiy xalq isyoni sifatida 1916-yilgi Jizzax qo'zg'oloni tarix sahnasiga chiqdi. Bu qo'zg'olon nafaqat o'z davrida, balki hozirgi mustaqil O'zbekiston tarixiy ongida ham chuqur iz qoldirgan voqelikdir. Stolypin agrar islohoti doirasida 1906–1912 yillar oraliq'ida 500 mingdan ortiq rus dehqoni Turkistonning eng serhosil yerlari, xususan Jizzax vohasi va Farg'ona vodiysiga joylashtirildi. Bu esa mahalliy aholining yer-suv resurslaridan foydalanish huquqini keskin cheklab qo'ydi.

Tarixchi Xolboev.X bu jarayonni "etnik nomutanosiblik siyosati" deb atab, yangi kelgan muhajirlarning mahalliy iqtisodiy ustunlikni egallashini tahlil qiladi. "Ochdasht" irrigatsiya loyihasi orqali Jizzaxning qadimiy qishloqlarida



yashovchi aholi o‘zining tabiiy boyliklaridan, hattoki o‘tin terishdan ham mahrum qilindi. Bu siyosatni o‘rganib chiqqan tarixchilar buni "tinch ekspluatatsiyaning harbiylashtirilgan shakli" deb ta’riflagan. Bu siyosiy bosimlar fonida mahalliy aholining Rossiya imperiyasiga nisbatan ishonchi tobora yo‘qola bordi.<sup>1</sup> Mahmudov.N. va Mavlonov.R. mazkur harakatlarni “xalq xotirasini izdan chiqarish va milliy o‘zlikni yo‘qotish siyosati” deb baholaydi. 1916-yilgi safarbarlik: siyosiy kuchsizlikdan vosita sifatida foydalanish: 1916-yil 25-iyunda imperator Nikolay II tomonidan chiqarilgan farmon bilan musulmon aholisi ham orqa front ishlariga safarbar etilishi belgilandi.

Bu esa ilgari harbiy xizmatdan ozod etilgan mahalliy xalqlarning siyosiy maqomini buzdi. Jizzax vohasidan 10 600 nafar erkak ishga jalg qilinishi rejalashtirilgan edi. Ro‘yxatlar rus tilida tuzilgani, poraxo’rlik va mahalliy amaldorlar tomonidan o‘z manfaati uchun ro‘yxatlar noto‘g‘ri tuzilganligi oqibatida minglab yigitlar ro‘yxatlardan bexabar qolishdi yoki noto‘g‘ri yozildi. Akmal Bazarbaev bu haqda "Safarbarlik voqeasi oddiy mehnat safarbarligi emas, balki siyosiy bostirish vositasiga aylantirilgan edi."<sup>2</sup> Tarixchilar esa mahalliy aholining safarbarlikka chaqiruvni "xalqning so‘nggi sha’ni va irodasini sindirishga urinish" sifatida qabul qilganini yozishadi.

1916-yil 2-iyul kuni Jizzaxda norozilik namoyishlari boshlangan bo‘lib, tez orada ularning ko‘lamni oshdi va qo‘zg‘olon butun viloyatga yoyildi. Qo‘zg‘olon Zaamin, Bog‘don va Sanzar volostlariga keng tarqaldi. Mahalliy boshqaruvchilarning adolatsizligi, yer-suvmasalalari, madaniy tazyiq va safarbarlik birgalikda portlovchi ijtimoiy vaziyatni yaratdi. Qo‘zg‘olon davomida rus amaldori polkovnik Rukin va uning yordamchilari o‘ldirildi. Bu voqeа Rossiya imperiyasi tomonidan keskin jazo choralariga sabab bo‘ldi. General Ivanov boshchiligidagi kuchlar yuborilib, yuzlab qishloqlar yo‘q qilindi, minglab tinch aholi qatl etildi. Tarixchilar "Bu voqeа epizodik norozilik emas, balki

Kholdorov T."Rossiya imperiyasining iqtisodiy siyosati va mahalloy aholi hayoti"(1900-1917),Toshkent Xolboyev X."Turkistonda agrar siyosat va uning oqibatlari" Toshkent 2008

<sup>2</sup> Bazarbaev A., Safarbarlik siyosati va mahalliy qarshiliklar: XX asr boshidagi Turkiston, Toshkent: Jahon tarixi, 2012



imperiyaning siyosiy va iqtisodiy zulmiga qarshi ongli, milliy harakat edi” deya ma'lomot berishadi.<sup>3</sup>

Qo‘zg‘olon faqat erkaklar tomonidan olib borilgan degan tasavvurlarni tarixiy faktlar rad etadi. Tarixchi Dilbar Saidovaning 2007-yilgi arxiv tadqiqotlarida ayollar va yoshlar faol qatnashganligi aniqlangan.<sup>4</sup>Eski Qo‘rg‘onlik 16 yoshli Halima Xoldorovaning qo‘zg‘olonchilarga oziq-ovqat yetkazgani va bu sababli hibsga olinib qiyonoqqa tutilgani bu borada yorqin misoldir.Bundan tashqari, taqiqotlarida qo‘zg‘olonchilarning 10–12 foizini ayollar tashkil etgani ta’kidlangan. Ular razvedka, yashirin yetkazib berish, ruhiy madad kabi ijtimoiy jihatdan muhim rollarni bajarganlar. Bu esa qo‘zg‘olonning faqat qurol emas, balki ijtimoiy birdamlik ifodasi ham bo‘lganini ko‘rsatadi.Qo‘zg‘olonning iqtisodiy va demografik oqibatlari:Qo‘zg‘olonning shafqatsiz bostirilishi Jizzax viloyatidai jtimoiy-iqtisodiy falokatga olib keldi. 15 000–20 000 kishi halok bo‘ldi, 3 000 dan ortig‘i hibsga olindi. Ko‘plab qishloqlar butunlay vayron qilindi.

Tarixchi A. Kayumovning yozishicha, "Jizzaxning demografik tarkibi o‘zgardi, yuzlab oilalar Farg‘ona, Qozog‘iston va Qirg‘izistonga ko‘chishga majbur bo‘ldi."<sup>5</sup> Ekin maydonlari yo‘q qilinib, oziq-ovqat ta’mnoti izdan chiqdi. Shu bilan birga, siyosiy ishonchsizlik kuchayib, mahalliy aholi Rossiya imperiyasi tuzumidan butkul uzoqlashdi. Bu holat kelajakda bosmachilik harakatlariga yo‘l ochdi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda 1916-yil voqealariga nisbatan tarixiy adolat tiklanmoqda. Har yili Jizzaxda xotira tadbirlari, ilmiy konferensiyalar, muhokamalar o‘tkazilmoqda. Yoshlarga bu voqealar faqat tarix emas, balki milliy g‘urur saboqlari sifatida yetkazilmoqda.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

<sup>3</sup> Islomov X “1916-yilgi qo‘zg‘olon;sabablari, kechishi va oqibatlari” Toshkent O‘zeliston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti

<sup>4</sup>Saidova D.”1916-yil Jizzax qo‘zg‘olonida ayollar va yoshlarning ishtiroki:arxiv hujjatlari asosida tahlil” Toshkent Tarix va Xotira,2007

<sup>5</sup> Kayumov A., Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va xalq harakatlari, Samarcand: Registon nashriyoti, 2015.



Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Tarixni unutgan millat yo'q bo'ladi. Biz ota-bobolarimizning ozodlik uchun qilgan kurashini har doim xotirada saqlaymiz va ulardan saboq olamiz". 1916-yilgi Jizzax qo'zg'oloni-bu faqat norozilik emas, balki millat o'zligini saqlab qolish uchun kurash edi. Tarixchilar olib brogan yangi tadqiqotlar, arxiv hujjatlari va xalq xotirasi bu harakatning real tarixiy va siyosiy ahamiyatini ko'rsatmoqda. Bugungi mustaqil O'zbekiston ushbu saboqlardan unumli foydalanib, tarixiy xotirani hurmat qilish orqali barqaror va adolatli jamiyat qurmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Islomov X. 1916-yilgi qo'zg'olon: sabablari, kechishi va oqibatlari. — Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2009.
2. Saidova D. 1916-yil Jizzax qo'zg'olonida ayollar va yoshlarning ishtiroki: arxiv hujjatlari asosida tahlil. — Toshkent: Tarix va Xotira, 2007.
3. Ziyoyeva D. (jamlovchi). 1916-yil Markaziy Osiyo qo'zg'oloni: tarixiy hujjatlar va tadqiqotlar to'plami. — Toshkent: Sharq nashriyoti, 2020.
4. Kayumov A. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va xalq harakatlari. — Samarqand: Registon nashriyoti, 2015.